


## 2022- yilning yanvar-sentabrida Qashqadaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-sentabrida Qashqadaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 36 006,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-sentabri bilan taqqoslaganda 4,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qashqadaryo viloyatining qo'shgan hissasi 5,7 % ga yetdi.



**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mird. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>31 209,9</b>	<b>36 006,9</b>	<b>104,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	29 888,3	34 401,0	104,4
mahsulotlarga sof soliqlar	1 321,6	1 605,9	106,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>29 888,3</b>	<b>34 401,0</b>	<b>104,4</b>
<i>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	<i>12 307,9</i>	<i>13 782,5</i>	<i>103,6</i>
<i>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</i>	<i>7 277,7</i>	<i>8 209,4</i>	<i>103,8</i>
<i>sanoat</i>	<i>5 285,5</i>	<i>5 836,9</i>	<i>104,5</i>
<i>qurilish</i>	<i>1 992,2</i>	<i>2 372,5</i>	<i>101,8</i>
<b>xizmatlar</b>	<b>10 302,7</b>	<b>12 409,1</b>	<b>105,8</b>
<i>savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</i>	<i>1 947,4</i>	<i>2 392,4</i>	<i>109,0</i>
<i>tashish va saqlash, axborot va aloqa</i>	<i>1 535,6</i>	<i>1 820,0</i>	<i>112,7</i>
<i>boshqa xizmat tarmoqlari</i>	<i>6 819,7</i>	<i>8 196,7</i>	<i>103,4</i>

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 10 482,7 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 % ga yuqoridir.

### 2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o‘sish sur’atlari

2021- yil

2022- yil

Aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM,  
ming so‘m

9 282,3

10 482,7

Aholi jon boshiga  
hisoblangan YAHM,  
o‘sish sur’ati

105,9 %

102,3 %



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 95,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 40,1 % ni, sanoat tarmog‘i 17,0 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 36,0 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	<b>2021- yil</b>	<b>2022- yil</b>
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	95,8	95,5
mahsulotlarga sof soliqlar	4,2	4,5
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>41,2</b>	<b>40,1</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>24,4</b>	<b>23,9</b>
sanoat	17,7	17,0
qurilish	6,7	6,9
<b>xizmatlar</b>	<b>34,4</b>	<b>36,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,5	7,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,1	5,3
boshqa xizmat tarmoqlari	22,8	23,7

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**




● **Yalpi qo'shilgan qiymat**

● **Mahsulotlarga soʻf soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 40,1 %), sanoatda – 104,5 % (17,0 %), qurilishda – 101,8 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 105,8 % ni (36,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,0 % (7,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,7 % (5,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,4 % (23,7 %) dan iborat bo'ldi.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**




YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,4 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,0 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,8 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 2,7 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,1 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 1,2 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,9 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 2,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2021- yilning yanvar-sentabrida – 0,6 f.p.) ga ko'paydi.

### 2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 110,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 116,9 % va xizmatlar sohasida – 113,8 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



**2021-2022- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)**

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,7 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-sentabrida – 69,0 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

